

**G'AFUR G'ULOM - O'ZBEK SHE'RIYATINING ELBURUSI**

Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada akademik va atoqli adib G'afur G'ulomning ijodiy faoliyati, uning asarlaridagi o'ziga xos jihatlar yoritilgan. G'afur G'ulomning o'zbek madaniyatiga qo'shgan hissasi, xalqning badiiy tafakkurini yuksaklarga ko'tarishdagi xizmatlari ochib berilgan. "Sen yetim emassan" va "Sog'inish" kabi she'rlarida xalqning dard-u hasratlarini mahorat bilan tasvirlagani tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *iste'dodli ijodkor, bebaho zavq, hamdardlik, inson sharafiga bitilgan madhiya, murg'ak, yetim go'daklar, poetik pafos, otalik huquqi, soddadil qalb.*

Dog'iston xalqining atoqli shoiri **Rasul Hamzatov G'afur G'ulomni "O'zbek she'riyatining Elburusi"** deb atagan edi. Bu ulug' siymo xoh nasrda, xoh nazmda bo'lsin yosh ijodkorlar, kitobxonlar uchun o'lmas asarlar yaratdi. Dunyoda yozuvchi va shoirlar ko'pdir, ammo nodir iste'dodlilari kamdan kam topiladi. Xuddi shunday iste'dodli ijodkorlardan biri G'afur G'ulom hisoblanadi. Shoir o'z she'rlarida Vatanni, millatni, xalqni ta'rif etgan. G'afur G'ulomning bolalik va yoshlik davrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab mashaqqatli davrlarni boshidan kechirganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ana shunday mashaqqatlardan toblangan shoir o'z iste'dodi, mehnati va irodasi orqali hozir ham hurmat bilan yodga olinadi. Asarlari esa o'quvchilar uchun bebaho zavq manbai bo'lib xizmat qiladi. G'afur G'ulom yetimlik nima ekanligini bilgani, boshidan o'tkazganligi uchun ham yetimlarning taqdirini aniq va ravshan ochib bera olgan. Uning ko'p asarlari yetimlarning taqdiriga hamdardlik ruhida yozilgan bo'lib, shulardan "Sen yetim emassan" she'ri inson sharafiga bitilgan madhiyaga qiyoslangan.

**Yetimlik nimadir-
Bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning
Sargardonligi
Isitma aralash
Qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan
Uchmaydi sira.**

Ushbu "Sen yetim emassan" she'ridan olingan satrlarga e'tibor beradigan bo'lsak, misralardan otilib chiqib, insonning yurak yuragiga yetib boruvchi bu nolalar Ikkinchi jahon urushi ayni dahshatli tus olgan bir paytda, beomon, qonli qirg'in olovi ostida qolgan belorus, ukrain va rus tuprog'ida ota-onasiz yetim bo'lib qolgan, O'zbekiston tuprog'iga olib kelingan murg'ak yetim go'daklarning nutqidan aytilgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek shoirning o'z boshidan kechirgan yetimlik yillarining



dahshatli mashaqqatlari kuylanib, o'z xotiralarini izchil kuchayib boruvchi poetik pafos bilan kitobxonga yetkazishga, uni o'zining dardli xotiralari bilan oshno qilishga muvaffaq bo'lgan. Bir mavzu ikkinchi bir mavzuni taqozo etadi, unga bog'lanib keladi, deyilganidek, shoirning "Sog'inish" she'rida otalarga xos mehr, farzanddan faxrlanish, iroda kabi jihatlar uyg'unlikda tasvirlangan. Ushbu she'r otalik tuyg'usi bilan sug'orilgan, jamiki otalarning timsoli madh etilgan.

Asaldan ajragan mumday sarg'ayib,

Ini yo'q aridek to'zg'iganim yo'q.

Ulug' e'tiqodda o'laman qarib,

Abaddir mendagi padariy huquq.

Ota o'zi bilan o'zi kurashadi. O'glining sog'-salomat qaytishiga otalik tuyg'usi bilan ishonib, umidini saqlab qoladi. Hattoki o'zining otalik huquqi abadiy ekanligini, o'g'lini umrini oxirigacha, so'nggi nafasigacha kutib o'tishini ta'kidlagandek bo'ladi nazdimizda. Mening fikrimcha, G'afur G'ulom she'rlarining eng muhim xususiyatlaridan biri- kuchli his-tuyg'uga to'la ilhom bilan yozilganligida. Ularda ulkan va soddadil qalbning zarblari sezilib turadi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, G'afur G'ulom hayotiyliigi, insoniyliigi, juda katta miqyoslarda tafakkur yuritishi milliylik bilan tutashib ketgan va ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. She'rlaridan o'zbekona milliylikka xos ota sog'inchi hissi, birodarlarning bir-biriga yordam berishi kabi jihatlar ufurib turadi. Shoirning badiiy so'zi inson umrining eng mashaqqatli davrlarini yengib, o'lmas, abadiyatga daxldor alloma sifatida bizning ko'z o'ngimizda gavdalanyabdi. G'afur G'ulom jisman hayotni tark etgan bo'lsada, ammo uning ma'naviy merosi hali asrlar osha yana ming, million yillar davomida o'zining kitobxonlariga yetib borib, ularni ham bu merosdan bahramand etadi. Chunki g'afurona ijodda necha asrlar o'tsa hamki, o'lmaydigan insoniylik va hayotiylik o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. - 352 b.
2. G'afur G'ulomning badiiy mahorati. T; -2021. -240b.
3. www.oriftolib.uz
4. www.mover.uz